

**ANIQ VA GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHDAGI INNOVATSIYALAR,
ULARNI UYG‘UNLASHTIRISH VA BIRLASHTIRISH**

Meyliqulova Mahbuba Musulmonovna

Qarshi Muhandislik-Iqtisodiyot Instituti akademik litseyi

Annotatsiya: Aniq fanlarning o‘qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari asosida 3 turdagи o‘quv mashg‘ulotlariga: ya’ni ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda keltirilganlarni kompleks holda qo‘llash tavsiya etiladi. Ushbu maqolada, aniq va gumanitar fanlarni o‘qitishdagi innovatsiyalar ularni uyg‘unlashtirish va birlashtirish haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: aniq fanlar, gumanitar fanlar, o‘qitish, texnologiyalar, uyg‘unlik, innovatsiyalar, birlashtirish.

Zamonaviy metodlar va ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirish bilan birga ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo‘lish hamda ijobiy kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Quyidagi aniq fanlarni o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi ehtimoli bo‘lgan metodlardan ayrimlari xususida qisqacha to‘xtolib o‘tamiz:

- "SWOT-TAHLIL" jadvali-alohida muammo yoki loyihani tashkillashtirishdek vaziyatni tahlil qilish va manbani baholash vositasi bo‘lib, talabalarni tizimli fikrlash, qiyoslash, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

- "B\B\B" jadvali-mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchanlik olib borish imkonini berib, tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.
- "INSERT" texnikasi-o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish, bilimlarni o‘zlashtirishning majmuali vazifalarini yechish va o‘quv materiallarini mustahkamlash hamda kitob bilan ishlashning o‘quv malakalarini rivojlantirishga qaratilgan.
- "BLITS-O‘YIN" metodi-harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etish mantiqiy fikrlash, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma-xil fikrlar va ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan.
- "T-sxemasi" metodi biror bir tushuncha yoki mavzu bo‘yicha o‘rnatilgan tizimni qiyosiy tahlil etish, solishtirish, taqqoslash, mustaqil munosabatlarni shakllantirish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan.
- "3*4" metodi-talabalarning erkin fikrashi, keng doirada turli g‘oyalarni bera olishi, ta’lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta’rif bera olishiga qaratilgan.
- "Charxpak" texnologiyasi-o‘quvchilarda muayyan mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan kasbiy axborotlarni mustahkamlash, analiz-sintez qilish, takrorlash, baholash va mustaqil ijodiy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dars jarayonida imkoni boricha talabalarni mavzuga jalb qilish, qiziqtirish, jamoa bo‘lib fikrlashni shakllantirish ularni shu mavzu to‘g‘risida kengroq tushunchaga ega bo‘lishlariga imkon yaratadi. Ma’ruza va amaliyot darslarini kompyuter xonalarida olib borish, mavzularni yoritishda va amaliyot darslarini imkoni boricha talabalarni jalb etgan holda olib borish dars o‘tish sifatini yaxshilaydi. Jamoa bo‘lib fikrlash pedagogik ta’sir etish usullaridan biri bo‘lib, ta’lim berish sifatini oshiradi. O‘qitish jarayonida o‘qituvchi va talaba hamkorlikda ko‘zlangan natijaga erishishi ko‘p jixatdan tanlangan texnologiyalarga bog‘liq, chunki qo‘llanilgan ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlikni tashkil

eta olsa, bu o‘qituvchining yutig‘idir. Ma’ruza va amaliyot darslarini olib borishda innovatsion va axborot texnologiyalarini qo‘llash talabalarni erkin fikrlashga, mavzuni yoritishda ijobiy yondoshishga, adabiyotlardan samarali foydalanishga va pirovard natijada o‘zi tanlagan kasbiga to‘liq qiziqishi ortishiga olib keladi. O‘qitish jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini kengroq qo‘llash uchun o‘qituvchilar uchun bu borada o‘quv uslubiy qo‘llanmalar chop etish va ulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Talabalarni darsga qo‘sghan hissasiga qarab taqdirlash. Dars davomida sinf bilan munosabatlarni saqlashga harakat qiling. Noan’anaviy darsingiz muvaffaqiyatining kaliti - bu oldindan, yaxshi rejorashtirilgan tayyorgarlik, uni amalga oshirish shakllari va usullarini o‘ylash. Nafaqat ta’lim, tarbiya va rivojlanish natijalarini, balki muloqotning rasmini ham baholang - darsning hissiy ohangi: o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi, o‘quvchilarning bir-biri bilan muloqoti.

Tashabbuskorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu real vaziyatlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun vositalar va usullarni mustaqil izlashni o‘z ichiga oladi. Bu an’anaviy ta’limning salbiy holatlariga barham beradi, eng muhimi, quvonch keltiradi. Darsning noan’anaviy shakllaridan, eng avvalo, o‘quvchilarning darsdagi faolligini faollashtirish orqali o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun foydalilanadi. Talabalar uchun - boshqa psixologik holatga o‘tish, bu boshqa muloqot uslubi, ijobiy his-tuyg‘ular, yangi sifatda his qilish yangi burch va mas’uliyatni anglatadi. O‘qituvchi uchun bu mustaqillik va o‘z ishiga mutlaqo boshqacha munosabatdir. Darsning noan’anaviy shakllari o‘z ijodiy qobiliyatları va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, bilimlarning rolini baholash va amaliyotda qo‘llanilishini ko‘rish, turli fanlar o‘rtasidagi munosabatlarni his qilish imkoniyatidir. Ta’limning noan’anaviy shakllaridan foydalanishda ota-onalarning ta’lim jarayonida ishtirok etishi bir xil darajada muhimdir. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, agar ota-onalar o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etishda ishtirok etsa, bolalarning bilim faolligi va qiziqishi sezilarli darajada oshadi. O‘qituvchi uchun ota-onalar va bolalarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish muhimdir. Bolalarga ota-

onalari va buvilaridan ma'lumot olish bilan bog'liq uy vazifasi taklif qilinishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'quv mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash vaqtini tejash bilan birga, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, fikrini erkin bayon eta olish, o'tilayotgan materiallarni tez o'zlashtirish va talaba yoshlarning aniq fanlarga qiziqishlari oshishiga imkon yaratadi. Qo'llaniladigan texnologiyalarning eng maqbullari va samara keltiradiganlarini tanlab olish va dars jarayonida ulardan keng foydalanish lozim. Bu asosan o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Hozirgi sharoitda o'qitish jarayonida "Savol-javob", "Aqliy hujum", "Dialog", "Bahs", "Guruh bo'lib ishslash", "Taqdimot", "Dibat" kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini shakllanishiga, talabalarni fanlarni chuqur o'zlashtirishiga hamda malakali mutaxassis bo'lib etishishlariga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zunnunov A, Mahkamov U. Didaktika (Ta'lim nazariyasi). Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun – T. Sharq, 2006. – 125 b.
2. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004. – № 3. – B. 24.
3. Muslimov N.A. Elektron darslik yaratish metodik tamoyillari va texnologiyalari // Infocom.UZ., 2004. – № 7. – B. 62-66.
4. O'.O'.Tolipov, M.O'smonboeva "Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyot" O'z.RFA nashriyoti T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2005.